

Terms	Atamalar	Izoh
$m \times n$ ordered matrice	$m \times n$ tartibli matritsa	<p>F maydonning mn ta a_{ij} ($i=\overline{1,m}, j=\overline{1,n}$) elementlaridan</p> <p>tuzilgan ushbu $A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{m1} & a_{m3} & \dots & a_{mn} \end{pmatrix}$</p> <p>ko'rinishdagi jadval F maydon ustidagi $m \times n$ tartibli matritsa deyiladi.</p>
Matrices with the same name	Nomdosh matritsalar	A va B matritsalar berilgan bo'lib, ularning mos ravishda satrlari va ustunlari soni teng bo'lsa, u holda A va B matritsalarini nomdosh matritsalar deb yuritiladi.
Equal matrices	Teng matritsalar	A matritsaning har bir a_{ij} elementi B matritsaning unga mos b_{ij} elementiga teng bo'lsa, u holda A va B nomdosh matritsalar teng deyiladi.
Beginner element of matrice's line	Matritsa satrining boshlovchi elementi	Matritsa satrining boshlovchi elementi deb uning birinchi (chapdan o'ngga qaraganda) noldan farqli elementiga aytiladi.
Quadratic matrice	kvadrat matritsa	Matritsaning satr va ustunlari soni teng bo'lsa, bunday matritsaga kvadrat matritsa deyiladi.
Inverse matrice	teskari matritsa	Shunday X va A n-tartibli kvadrat matritsalar berilgan bo'lib, ular uchun $XA = AX = E$ (E – n-tartibli birlik matritsa) shart bajarilsa, u

		holda X matritsaga A matritsaga teskari matritsa deyiladi va A^{-1} ko'rinishda belgilanadi.
Elementar y matrice	Elementar matritsa	<p>Birlik matritsadan quyidagi elementar almashtirishlarning biri yordamida hosil qilingan matritsaga elementar matritsa deyiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1) birlik matritsa satri (ustuni)ni noldan farqli skalarga ko'paytirish. 2) birlik matritsa biror bir satri (ustuni) ga noldan farqli skalyarga ko'paytirilgan satr (ustun)ni qo'shish yoki ayirish.
Determinant of the quadratic matrice	Kvadrat matritsaning determinanti	Kvadrat matritsaning har bir satr va har bir ustunidan bittadan elementlar olib tuzilgan ko'paytmalarning algebraik yig'indisiga berilgan kvadrat matritsaning determinanti deyiladi.